

FRESKA, MOZAIKA VA SGRAFFITO TEXNIKALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Hilola Orifjon qizi Abdusalomova

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Mahobatli
rangtasvir yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahobatli rangtasvir san’atining asosiy texnikalari hisoblangan freska, mozaika va sgraffito usullarining kelib chiqish tarixi, texnologik xususiyatlari, badiiy imkoniyatlari hamda zamonaviy me’morchilikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Ushbu texnikalarning yaratilish bosqichlari, ishlatiladigan materiallari, afzallik va kamchiliklari yoritilib, ularning o‘zaro farqli jihatlari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston monumental san’atida ushbu texnikalarning qo‘llanilishi ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: mahobatli rangtasvir, monumental san’at, freska, mozaika, sgraffito, devoriy rangtasvir, kompozitsiya, me’morchilik.

Mahobatli rangtasvir insoniyat tomonidan yaratilgan eng qadimiy tasviriy san’at turlaridan biri bo‘lib, u me’morchilik bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Monumental rangtasvir asarlari odatda binolarning ichki va tashqi devorlari, gumbazlari, shiftlari hamda jamoat inshootlarini badiiy bezash maqsadida yaratiladi. Bunday asarlar nafaqat estetik vazifani bajaradi, balki xalqning tarixi, madaniyati, diniy qarashlari va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim madaniy meros hisoblanadi¹³.

Mahobatli rangtasvirning rivojlanishida freska, mozaika va sgraffito texnikalari alohida o‘rin egallaydi. Har bir texnika o‘zining bajarilish usuli, ishlatiladigan materiallari, texnologik jarayoni va badiiy imkoniyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Freska texnikasi nam suvoq ustiga mineral pigmentlar bilan ishlashga asoslangan bo‘lsa, mozaikada rangli tosh, shisha yoki keramika bo‘laklari yordamida tasvir yaratiladi. Sgraffito usulida esa turli rangdagi suvoq qatlamlari maxsus asboblarda yordamida qirib ishlanib, dekorativ kompozitsiya hosil qilinadi¹⁴. Ushbu texnikalar qadimgi Misr, Mesopotamiya, Yunoniston va Rim madaniyatlarida keng qo‘llanilgan bo‘lib, keyinchalik Vizantiya hamda Uyg‘onish davri san’atida yanada takomillashgan. Ayniqsa, Italiyada Giotto, Rafael va Mikelanjelo kabi buyuk rassomlar freska san’atini yuksak darajaga olib chiqqan bo‘lsalar, Vizantiya ustalari mozaika san’atining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shganlar. O‘zbekiston hududida ham monumental rangtasvir qadimiy tarixga ega. Afrosiyob, Varaxsha,

¹³ Xudoyberganov R.A. Mahobatli rangtasvir: texnika va texnologiyasi. — Toshkent, 2015. — 5–9-betlar

¹⁴ Xudoyberganov R.A. Mahobatli rangtasvir: texnika va texnologiyasi. — 24–36-betlar.

Bolaliktepa va Panjikent yodgorliklarida topilgan devoriy rasmlar Markaziy Osiyoda mahobatli rangtasvirning qadimdan rivojlanganini ko'rsatadi. Mustaqillik yillarida esa monumental san'at yangi bosqichga ko'tarilib, teatrlar, metro bekatlari, muzeylar va davlat binolarini bezashda freska, mozaika hamda boshqa monumental bezak texnikalaridan keng foydalanilmoqda. Bugungi kunda monumental rangtasvir nafaqat tarixiy obidalarni bezashda, balki zamonaviy me'morchilikda ham muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy materiallar va texnologiyalarning paydo bo'lishi ushbu san'at turining imkoniyatlarini yanada kengaytirib, uni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu sababli freska, mozaika va sgraffito texnikalarining texnologik hamda badiiy xususiyatlarini o'rganish san'atshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Freska monumental rangtasvirning eng qadimiy va murakkab texnikalaridan biri hisoblanadi. "Freska" atamasi italyan tilidagi a fresco iborasidan olingan bo'lib, "ho'l suvoq ustiga ishlash" degan ma'noni anglatadi. Ushbu texnikada tasvir hali qurib ulgurmagan ohakli suvoq yuzasiga suvda eritilgan mineral pigmentlar yordamida ishlanadi. Suvoq qurishi davomida pigmentlar ohak tarkibiga singib ketadi va kimyoviy reaksiyalar natijasida tasvir devorning ajralmas qismiga aylanadi. Aynan shu xususiyati sababli freskalar yuzlab, hatto ming yillab saqlanib qolishi mumkin¹⁵. Freska san'atining tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Arxeologik tadqiqotlar Krit orolidagi Knossos saroyi, Santorini orolidagi Akrotiri shahri hamda qadimgi Pompey va Gerkulanum shaharlarida topilgan devoriy rasmlar ushbu texnikaning miloddan avvalgi II ming yillikdayoq qo'llanilganini ko'rsatadi. Keyinchalik Uyg'onish davrida Italiya san'atida freska o'zining eng yuqori taraqqiyot bosqichiga erishdi. Giotto di Bondone, Masaccio, Rafael va Mikelanjelo yaratgan freskalar jahon tasviriy san'atining eng nodir namunalaridan hisoblanadi. Freska yaratish jarayoni bir necha bosqichdan iborat. Dastlab devor yuzasi tozalanib, mustahkamlanadi. So'ngra ohak, qum va suv aralashmasidan tayyorlangan suvoq bir necha qatlamda surtib chiqiladi. Yakuniy qatlam hali nam holatda bo'lganida rassom oldindan tayyorlangan kompozitsiyani devorga tushiradi va mineral pigmentlar bilan bo'yash ishlarini bajaradi. Suvoq juda tez qurishi sababli rassom har bir ish qismini bir kun ichida tugatishi kerak. Shu sababli freska yaratish jarayoni yuqori mahorat, puxta rejalashtirish va katta tajribani talab etadi.

¹⁵ Xudoyberganov R.A. Mahobatli rangtasvir: texnika va texnologiyasi. — Toshkent, 2015



Freska texnikasida faqat tabiiy mineral pigmentlardan foydalaniladi. Oqartirilgan ohak bilan reaksiyaga kirisha oladigan pigmentlarga uzoq muddat o'z rangini saqlab qoladi. Organik bo'yoqlardan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki ular vaqt o'tishi bilan rangini yo'qotadi yoki suvoqdan ajralib ketadi¹⁶. Oqartirilgan ohak tarkibidagi kaltsiy karbonat

pigmentlarni mustahkam bog'lab, tasvirning uzoq yillar davomida saqlanishini ta'minlaydi. Freska texnikasining asosiy afzalliklaridan biri uning mustahkamligi va uzoq umr ko'rishidir. Bunday asarlar namlik, harorat o'zgarishi hamda vaqt ta'siriga nisbatan ancha chidamli bo'ladi. Bundan tashqari, freska binoning me'moriy tuzilishi bilan uyg'unlashib, yaxlit badiiy kompozitsiyani hosil qiladi. Shu sababli ushbu texnika ibodatxonalar, saroylar, muzeylar va boshqa yirik jamoat binolarini bezashda keng qo'llanilgan. Shu bilan birga, freskaning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Avvalo, rassom nam suvoq qurib qolmasidan ishni yakunlashi lozim. Tasvirda yo'l qo'yilgan xatoni keyinchalik tuzatish juda qiyin, ayrim hollarda esa buning uchun suvoqning bir qismini qayta ishlashga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, freska texnikasida ishlatiladigan materiallar va texnologik talablar boshqa monumental rangtasvir usullariga qaraganda murakkabroq hisoblanadi.



Jahon san'ati tarixida Mikelanjeloning Rim shahridagi Sikstin kapellasi shiftiga ishlagan freskalari monumental rangtasvirning eng buyuk namunalari sifatida e'tirof etiladi. Rafaelning Vatikan saroyidagi devoriy rasmlari ham freska san'atining yuksak namunalaridan biridir. Mazkur asarlar nafaqat badiiy mahorati, balki kompozitsiyasi, rang uyg'unligi va inson obrazlarini mukammal tasvirlagani bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ham freska texnikasi XX asrning

ikkinchi yarmidan boshlab keng rivojlandi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri, muzeylar, madaniyat saroylari hamda boshqa jamoat binolarini bezashda monumental rangtasvirning ushbu usulidan samarali foydalanilgan. Bugungi kunda ham zamonaviy rassomlar tarixiy an'analarni saqlagan holda yangi material va texnologiyalar yordamida freska asarlarini yaratishda davom etmoqdalar.

¹⁶ Бергер Е. «Техника фрески и техника сграффито». - М.: 1930.



Mozaika monumental rangtasvir va monumental bezak san'atining eng qadimiy hamda eng mustahkam texnikalaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnikada tasvir rangli tabiiy tosh, marmar, granit, smalta (rangli shisha), keramika yoki boshqa materiallarning mayda bo'laklarini maxsus qorishma yordamida birlashtirish orqali yaratiladi. "Mozaika" atamasi lotin tilidagi musivum va italyan tilidagi mosaico so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "muzalarga bag'ishlangan asar" ma'nosini anglatadi. Mozaika san'atining tarixi miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarga borib taqaladi. Dastlab Mesopotamiya va Qadimgi Misrda sodda geometrik naqshlar yaratishda qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik Yunoniston va Rim imperiyasida yuqori darajada rivojlandi. Ayniqsa, Vizantiya davrida mozaika monumental san'atning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Konstantinopol, Ravenna va Venetsiyadagi ibodatxonalar devorlari hamda gumbazlari oltin va rangli smaltalardan ishlangan mozaikalar bilan bezatilgan bo'lib, ular bugungi kungacha o'zining badiiy qimmatini saqlab kelmoqda. Mozaika yaratish murakkab va ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Avvalo, rassom kompozitsiyaning eskizini tayyorlaydi. Shundan so'ng ranglar va materiallar tanlanadi. Tabiiy tosh yoki smalta maxsus asboblarda yordamida kerakli o'lchamdagi bo'laklarga ajratiladi. Tayyorlangan elementlar sement yoki ohak asosidagi qorishma yordamida devor yoki boshqa sirtga birma-bir joylashtiriladi. Ish yakunlangach, choklar maxsus qorishma bilan to'ldiriladi va yuzasi tozalanib, jilolanadi. Ushbu jarayon katta sabr-toqat, aniqlik va yuqori kasbiy mahoratni talab etadi.

Mozaika texnikasida ishlatiladigan materiallar badiiy natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Smalta yorug'likni o'ziga xos tarzda aks ettirishi sababli tasvirga yorqinlik va chuqurlik beradi. Marmar va granit esa o'zining tabiiy teksturasi bilan kompozitsiyani yanada boyitadi. Keramika va tabiiy toshlardan foydalanish esa monumental asarning tashqi muhit ta'siriga chidamliligini oshiradi. Zamonaviy monumental san'atda metall, emal va sun'iy kompozit materiallardan ham foydalanilmoqda. Mozaika texnikasining asosiy afzalligi uning nihoyatda mustahkamligidir. Bunday asarlar quyosh nuri, yog'ingarchilik, shamol va harorat o'zgarishlariga juda chidamli bo'lib, asrlar davomida deyarli o'z ko'rinishini yo'qotmaydi. Shu sababli mozaika nafaqat ichki bezaklarda, balki binolarning tashqi fasadlarini bezashda ham keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, rangli materiallarning xilma-xilligi rassomga murakkab kompozitsiyalar va rang uyg'unliklarini yaratish imkonini beradi. Biroq mozaika texnikasining ayrim kamchiliklari ham mavjud. Avvalo, materiallarni tayyorlash va ularni birma-bir joylashtirish ko'p vaqt talab qiladi. Bundan tashqari, smalta va tabiiy toshlarning narxi nisbatan yuqori bo'lib, katta hajmdagi



monumental kompozitsiyalarni yaratish iqtisodiy jihatdan qimmatga tushadi. Shuningdek, noto'g'ri joylashtirilgan elementni almashtirish ham murakkab jarayon hisoblanadi.



O'zbekistonda mozaika san'ati XX asrning ikkinchi yarmida ayniqsa rivojlandi. Toshkent metropolitenining ko'plab bekatlarida monumental mozaika kompozitsiyalaridan foydalanilgan. Shuningdek, madaniyat saroylari, muzeylar, oliy ta'lim muassasalari va boshqa jamoat binolarining bezagida ham ushbu texnika keng qo'llanilgan. O'zbek monumental rassomlari milliy naqshlar, tarixiy shaxslar va xalq og'zaki ijodi motivlarini mozaika orqali ifodalashga alohida e'tibor qaratganlar. Bugungi kunda mozaika san'ati zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashib bormoqda. Kompyuter grafikasi yordamida kompozitsiya loyihalari ishlab chiqiladi, lazer uskunalar bilan materiallarga ishlov beriladi hamda yangi sintetik materiallardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, tarixiy mozaikalarni restavratsiya qilish va ularni kelajak avlodga yetkazish san'atshunoslik hamda madaniy merosni muhofaza qilishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqdalar.



Sgraffito monumental rangtasvir va dekorativ bezak san'atining o'ziga xos texnikalaridan biri bo'lib, u turli rangdagi suvoq qatlamlarini qirib ishlash usuliga asoslanadi. "Sgraffito" atamasi italyan tilidagi sgraffiare fe'lidan olingan bo'lib, "tirnamoq", "qirib ishlamoq" degan ma'nolarni anglatadi. Ushbu texnikada devor yuzasiga ketma-ket turli rangdagi suvoq qatlamlari surtib chiqiladi va ular to'liq qotib ulgurmasdan maxsus metall yoki yog'och asboblari yordamida yuqori qatlam qirib olinadi. Natijada pastki qatlamdagi ranglar ochilib, badiiy tasvir yoki bezak kompozitsiyasi hosil bo'ladi. Sgraffito texnikasi XIV–XV asrlarda Italiyada keng rivojlangan bo'lib, keyinchalik Germaniya, Chexiya, Polsha va boshqa Yevropa mamlakatlariga tarqalgan. Uyg'onish davrida ushbu texnika saroylar, ibodatxonalar va jamoat binolarining tashqi fasadlarini bezashda keng qo'llanilgan. Ayniqsa, Florensiya va Praga shaharlaridagi tarixiy binolarda sgraffito usulida yaratilgan bezaklar bugungi kungacha yaxshi saqlanib qolgan.

Sgraffito yaratish jarayoni bir necha bosqichdan iborat. Avvalo, devor yuzasi tekislanadi va tayyorlanadi. Shundan so'ng turli rangdagi ohakli suvoq qatlamlari ketma-ket surtib chiqiladi. Eng ustki qatlam hali nam holatda bo'lganida rassom oldindan

tayyorlangan eskiz asosida maxsus asbob yordamida suvoqni qirib ishlaydi.

Yuqori qatlam olib tashlangach, ostidagi ranglar ko‘rinib, tasvir hosil bo‘ladi.

Shu sababli sgraffito texnikasi nafaqat rangtasvir, balki grafik san’at elementlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Sgraffito texnikasida asosan tabiiy ohak, qum, mineral pigmentlar va suvdan foydalaniladi. Ranglarning tabiiyligi hamda ohakning mustahkamligi tufayli tayyor kompozitsiyalar tashqi muhit ta’siriga nisbatan ancha chidamli bo‘ladi. Ayniqsa, fasadlarni bezashda ushbu texnika uzoq muddat xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Oqartirilgan ohak va tabiiy pigmentlarning uyg‘unligi tasvirning yorqinligini uzoq vaqt saqlab qolish imkonini beradi. Sgraffitoning asosiy afzalligi uning dekorativ ko‘rinishidir. Turli rang qatlamlarining uyg‘unligi kompozitsiyaga chuqurlik va badiiy ifodaviylik bag‘ishlaydi. Bundan tashqari, ushbu texnika yordamida katta hajmdagi geometrik naqshlar, o‘simliksimon ornamentlar, tarixiy kompozitsiyalar va ramziy tasvirlarni yaratish mumkin. Sgraffito fasadlarni bezash uchun eng qulay monumental texnikalardan biri hisoblanadi. Biroq ushbu texnikaning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Ish jarayonida qatlamlarning qalinligini aniq belgilash, ularning namlik darajasini nazorat qilish va qirib ishlash vaqtini to‘g‘ri tanlash talab etiladi. Aks holda, tasvir sifati buzilishi yoki suvoq qatlamlari shikastlanishi mumkin. Shu sababli sgraffito texnikasi rassomdan nafaqat badiiy mahorat, balki yuqori darajadagi texnologik bilim va amaliy tajribani ham talab qiladi.



O‘zbekistonda monumental bezak san’atining rivojlanishi bilan bir qatorda sgraffito texnikasidan ham ayrim jamoat binolari, madaniyat markazlari va ta’lim muassasalarini bezashda foydalanilgan. Zamonaviy me’morchilikda ushbu usul milliy naqsh va ornamentlarni devor bezaklariga tatbiq etishda samarali qo‘llanilmoqda. Shuningdek,

yangi qurilish materiallari va himoya qoplamalarining paydo bo‘lishi sgraffito texnikasining imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Bugungi kunda sgraffito nafaqat tarixiy obidalarini restavratsiya qilishda, balki zamonaviy arxitektura loyihalarida ham qo‘llanilmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida oldindan kompozitsiya loyihalari ishlab chiqilishi va maxsus asbob-uskunalarining takomillashuvi ushbu texnikaning badiiy imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Shu bois sgraffito monumental rangtasvirning istiqbolli va dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Xulosa: Mahobatli rangtasvir insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, uning rivojlanishida freska, mozaika va sgraffito texnikalari alohida o‘rin egallaydi. Mazkur texnikalar o‘zining bajarilish usuli, ishlatiladigan materiallari va badiiy

imkoniyatlari bilan bir-biridan farq qilsa-da, ularning umumiy maqsadi me'moriy inshootlarni bezash, estetik muhit yaratish hamda jamiyatning tarixiy va madaniy qadriyatlarini badiiy obrazlar orqali ifodalashdan iboratdir. Freska texnikasi ho'l suvoq ustiga ishlanishi va bo'yoqlarning suvoq bilan birikishi natijasida yuqori mustahkamlikka ega bo'lsa, mozaika rangli tosh, smalta va keramika bo'laklari yordamida yaratilishi bilan ajralib turadi. Sgraffito esa turli rangdagi suvoq qatlamlarini qirib ishlash usuli orqali dekorativ va badiiy kompozitsiyalar yaratishga imkon beradi. Har uchala texnika monumental rangtasvir san'atining rivojlanishida muhim o'rin tutadi va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'zbekiston hududida monumental rangtasvir qadimiy tarixga ega bo'lib, Afrosiyob, Varaxsha, Panjikent va Bolaliktepa yodgorliklari buning yorqin dalilidir. Zamonaviy O'zbekistonda esa teatrlar, muzeylar, metro bekatlari va boshqa jamoat binolarini bezashda monumental rangtasvir texnikalaridan samarali foydalanilmoqda. Bu esa milliy madaniyatni rivojlantirish va tarixiy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yangi qurilish materiallari, zamonaviy bo'yoqlar va raqamli texnologiyalar monumental rangtasvir imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Shu bilan birga, tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, qadimiy texnologiyalarni o'rganish va ularni kelajak avlodga yetkazish san'atshunoslik fanining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, freska, mozaika va sgraffito texnikalarini chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Xudoyberganov R.A. Mahobatli rangtasvir: texnika va texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
- 2.Abdullayev N. San'at tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
- 3.Abdullayev N. O'zbekiston san'ati tarixi. – Toshkent, 2007.
- 4.Gombrich E.H. The Story of Art. 16th Edition. – London: Phaidon Press, 1995.
- 5.Mayer R. The Artist's Handbook of Materials and Techniques. 5th Edition. – New York: Viking Press, 1991.
- 6.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "Mahobatli rangtasvir" maqolasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003.
- 7.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "Mozaika" maqolasi. – Toshkent, 2003.
- 8.O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "Freska" maqolasi. – Toshkent, 2003.

9. Akbarov H. Monumental san'at asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
10. Mirzayev A. Dekorativ-amaliy va monumental san'at. – Toshkent, 2017.
11. Journal of Cultural Heritage. Monumental Painting Conservation maqolalari.
12. Studies in Conservation jurnalida monumental rangtasvir va restavratsiya bo'yicha maqolalar.
13. Бергер Е. «Техника фрески и техника сграффито». - М.: 1930.

